

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil dagi UMO-21 3 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish муддати 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi		Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	
Kafedra		Epidemiologiya	
O'quv dastur nomi		Epidemiologiya	
O'qish turi		Umumiy malaka oshirish	
O'quv dastur mualiflari		Iskandarova G.T., Raxmanova J.A., Ne'matov A.S., Zoirova N.T.	
Siklning umumiy soati		144 kredit	
Siklda dars beradigan professor-o'qituvchilar			
 t.f.d., professor Iskandarova G.T.	 t.f.d., professor Raxmanova J.A.	 t.f.d., professor Ne'matov A.S.	 katta o'qituvchi Zoirova N.T.
Maqsad		Epidemiologlarning kasbiy bilim darajasi va malakasini oshirish, bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash, professional kompetensiyalarini takomillashtirish, yetuk, barkamol, sog'lom va ilg'or shifokor shaxsini shakllantirish. Aholining ongiga sog'lom hayot turmush tarzi, infeksiya va noinfeksiya kasalliklari oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatadigan, ularni yuqumli kasalliklarni aniqlay oladigan, epidemiologik tashhis, epidemiologik nazorat, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat.	

Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mazkur mutaxassislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan vrach-epidemiologlar.
Sikl vazifalari	Epidemik tashhis, epidemiyaga qarshi kurashda yangi usullarni qo'llash, aholining kasallikka moyil qatlamini aniqlash, aholida immunitetni hosil qilishga qaratilgan choralarni tashkilashtirish, epidemiologik tashhis, epidemiologik nazorat, olingan kasallik ma'lumotlari bo'yicha statistik ishlov berish va hisobot rasmiylashtirish; profilaktika va epidemiyaga qarshi zamonaviy chora-tadbirlarni kundalik amaliyotga joriy qilish, yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda Jahonda qo'llanilayotgan rejim qoidalarini o'rgatish;
Sikl tarkibi	Modul 1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida me'yoriy xujjatlar Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasini faoliyati va me'yoriy hujjatlar. Modul 2. Epidemiologiyaning zamonaviy talqini. Modul 3. Biostatistikaning zamonaviy asoslari. Modul 4. Xususiy epidemiologiyaning dolzarb muammolari. Modul 5. Respublikada sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasi faoliyati va tamoyillarining zamonaviy talqini- nazariy va amaliy
O'qish bazalari	Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasi